

UDK: 66.013.6

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI KO`P KVARTIRALI UYLARDA ENERGIYA
TEJAMKOR QURILMALARINI QO`LLASHNING NAZARIY TAHLILI**

Assistant, O`rinov Murodjon Zayni o`g`li, dotsent Omonova Dilnoza Fayziddinovna
Toshkent arxitektura qurilish universiteti, O`zbekiston
E-mail: murodurinov96@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada energiya tejamkorlik sohasida mavjud kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar, aholini qayta tiklanuvchi energiya bilan ta'minlanish darajasini ko'tarish va shunga bog'liq moliyaviy hisobotlarini zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini faollashtirish va davlat boshqaruving tashkiliy-huquqiy asoslari asosida tashkil qilish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Energiya tejovchi texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini, ko`p kvartirali uylar, quyosh panellari, raqobat muhiti, energetika.

Аннотация. В данной статье указаны существующие недостатки в области энергосбережения, а также проводимые реформы с целью их устранения, повышения уровня обеспечения населения возобновляемой энергией и соответствующей финансовой отчетности на основе современных инновационных идей, разработок и технологий, активизации современных механизмов управления и организационно-правовых основ государственного управления.

Ключевые слова: Энергосберегающие технологии, возобновляемые источники энергии, многоквартирные дома, солнечные батареи, конкурентная среда, энергетика.

Annotation. This article indicates the existing shortcomings in the field of energy saving, as well as the ongoing reforms to eliminate them, increase the level of provision of the population with renewable energy and relevant financial reporting based on modern innovative ideas, developments and technologies, the activation of modern management mechanisms and the organizational and legal foundations of public administration .

Key words: Energy-saving technologies, renewable energy sources, apartment buildings, solar panels, competitive environment, energy.

Kirish: Bugungi kunda Respublikamiz aholisi kundan kunga ortib bormoqda va bu energiya iste'moliga nisbatan talab darajasi yuqorilayotganligidan dalolat beradi. Yuqoridagi holatni hisobga olgan holda yuzaga kelgan, hamda paydo bo`lishi mumkin bo`lgan muammolarning oldini olish maqsadida davlatimiz rahbari tomonidan bir qancha amaliy islohotlar amalga oshirilmoqda. O`zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida Vazirlar Mahkamasining «Respublikadagi bino va inshootlar, ijtimoiy soha va turar joy obektlarida energiya tejovchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori loyihasi muhokamaga qo'yildi. Energetika vazirligi ushbu loyiha tashabbusi bilan chiqqan.

O`zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi ma'lumotlariga ko`ra energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha Respublika komissiyasi tomonidan 2020 yilda vazirlik va idoralarning 691 ta bino va inshootlarida fotoelektr stansiyalar va kollektorlar qurilishi, energiya samarador deraza bloklarini, svetodiodli manbalarni o'z ichiga olgan sensorli datchiklar o'rnatish bo'yicha dasturiy ro'yxatlari tasdiqlanib amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda[1].

O`zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi Energetika vazirligi bilan birlgilikda 2021-yil uchun (keyinchalik muntazam ravishda kelgusi yillar uchun) «Ijtimoiy soha ob'ektlarida hamda shahar va qishloqlarda quriladigan namunaviy arzon uy-joylarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish manzilli dasturi»ni 2020 yilning 1 dekabriga qadar Vazirlar Mahkamasiga kiritdi.

Mamlakatimizda energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish va muqobil energetikani rivojlantirish iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 16-fevraldagagi “2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida" gi PQ-57-sonli qarori bu borada muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Joriy yilda yurtimizda umumiy quvvati 4300 MVt bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini, jumladan 2100 MVt – yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari, 1200 MVt – ijtimoiy soha ob'ektlari, xo'jalik sub'ektlarining bino va inshootlari hamda xonadonlarda o'rnatiladigan quyosh panellari, 550 MVt – tadbirkorlar tomonidan barpo etiladigan kichik fotoelektr stansiyalarini ishga tushirish belgilangan.

Davlatimiz rahbari qarorida joriy yilda foydalanishga topshiriladigan ko'p qavatlari uylarni qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan ta'minlash belgilangan. Shu asosida viloyatlardagidagi yangi ko'p qavatlari uylarga quyosh panellari o'rnatish ko'zda tutilgan. Kundalik hayotda energiya tejovchi texnologiyalar nur va issiqlikni tejashga, shuningdek, ushbu resurslardan oqilona foydalanishni nazorat qilish va qo'shimcha manbalarni olishga qaratilgan.

Qo'llanilgan materiallar va uslublar: Prezidentimiz rahnamoligida tabiiy resurslardan, jumladan, elektr energiyasidan samarali foydalanish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish va energiya tejamkor lampalarni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytda energiya tejaydigan lampalardan mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va aholi xonadonlarida keng foydalanilmoqda.

Energiyani tejashning eng oson usuli yorug'lik lampalar orniga filaman bilan emas, balki energiyani tejaydigan yorug'likni (floresan va LED) ishlatalishdir. Quyosh batareyalari va shamol tegrimonlari yordamida mustaqil ravishda energiya olish qiyin. Axir, ular nafaqat sotib olinishi kerak, balki to'g'ri ravishda o'rnatilishi kerak, va buning uchun biz ko'pincha katta maydonlarni ajratishimiz kerak.

Uyni isitish uchun energiya tejovchi texnologiyalar orasida elektr isitish qozonlari va quyosh isitish tizimlari juda yaxshi isbotlangan, infraqizil panellar va monolitik kvarsli issiqlik va elektr isitgichlar ham ishlatalishi mumkin.

An'anaviy isitish tizimlari (gaz bo'yicha) shuningdek, o'zlarining qo'llarini energiya tejovchi texnologiyalar bilan, masalan, termostatik klapanlar va havo harorati sezgichlari hisoblash mexanizmi bilan birlashtiradigan holda, iqtisodiy jihatdan mumkin. Birinchi holatda qozon qo'lda, ikkinchidan, avtomatik ravishda qabul qilingan ma'lumotlarga asoslangan holda o'rnatiladi.

Energiyani tejovchi texnologiyalarni o'rnatish juda qimmat, ammo asta-sekin iste'mol qilinadigan elektr energiyasini kamaytirish orqali uni to'laydi.

Natijalar. Energiyani tejovchi texnologiyalarni qo'llash hozir juda muhim, chunki energiya ishlab chiqaruvchi foydali qazilmalar cheklangan va tiklanmagan. Shuning uchun har yili ularning narxi ortib bormoqda.

Agar foydalaniayotgan 100 Vt quvvatli cho'g'lamma lampalarni 7 Vt quvvatli energiya tejovchi lampalarga almashtirilsa, sutka davomida 8 soat ishlaga quyidagilar sarflanadi:

- 100 Vt quvvatli lampa bir kunda o'rtacha 8 soat ishlasa 800 Vt.soot, bir oyda esa 24 kilovatt-soat elektr energiyasi sarflaydi.

- 7 Vt quvvatli energiya tejovchi lampa esa, bir kunda 8 soat ishlasa 56 Vt, bir oyda (30 kun) 1,6 kilovatt-soat elektr energiyasi sarflaydi.

Demak, bir dona energiya tejovchi lampa bir oyda 22.4 kilovatt-soat elektr energiyasini iqtisod qiladi.

Bu esa, elektr energiyasining amaldagi 295 so'm ta'rifi bo'yicha hisoblaganda, bir dona energiya tejovchi lampa bir oyda 6 608 so'm, bir yilda esa 79 296 so'm iqtisod qiladi.

Xulosa. Hozirgi kunda energiya tejamkor texnologiyalardan ko'proq foydalanish tizimiga o'tishimiz kerak, negaki tabiy resurslarimiz kamayib ketyapti, ularni tejash esa global muammo bo'lib qolmoqda. Shuning uchun mavjud energiya resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish davr talabidir, hamda yurtimizda elektr energetika sohasiga innovatsion energiya tejamkor texnologiyalarni tadbiq etish katta ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar ro'yxati:

- <https://m.kun.uz/uz/news/2020/05/25/respublikadagi-bino-va-inshootlarda-energiya-tejovchi-texnologiyalar-joriy-etiladi>
- <https://aza.uz/oz/posts/energiya-tejamkor-texnologiyalar-istiqbollari-15-04-2016>